

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XAMRAYEV DILSHOD XAMDAMOVICH

**“TARKIBADAXSHON” DOSTONI SYUJETINING
GENEZISI VA EVOLYUTSIYASI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Хамраев Дилшод Хамдамович

“Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi va evolyutsiyasi..... 5

Khamraev Dilshod Khamdamovich

Genesis and evolution of the plot of the epic “Tarkibadakhshan”..... 23

Хамраев Дилшод Хамдамович

Генезис и эволюция сюжета эпоса “Таркибадахшан”..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 47

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XAMRAYEV DILSHOD XAMDAMOVICH

**“TARKIBADAXSHON” DOSTONI SYUJETINING
GENEZISI VA EVOLYUTSIYASI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida R2022.I.PhD/Fil2334 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Qarshi davlat universiteti Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Achilov Nasim Kamolovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar: Yorusatov Isomiddin
filologiya fanlari doktori, professor

Palimbetov Kamalbay
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil "1" "12" soat 11 daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17). (Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Qarshi davlat universiteti, 2-bino, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (111-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "18" "11" kuni tarqatildi
(2023 yil "18" "11" daqi "1" raqamli reyestr bayonnomasi).



G.X. Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.E. Yuldosheva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d., (DSc), dotsent

D. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida epik syujetlarning genezisi, undagi motiv va obrazlarning yuzaga kelishi hamda badiiy evolyutsiyasi, shuningdek, epik an'ana va uning tadrijiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishga e'tibor har doim kuchli bo'lgan. Shu asosda eposni yaratuvchilarning qadimiy tasavvur va tushunchalari hamda epik kuychi tipining ijro va ijod etish ko'nikmalari bilan bog'liq ravishda epik tafakkur rivojida yuz bergan o'zgarishlar, xalq dostonlarining genezisi va syujet qatlamlaridagi diffuzion holatlar, versiya va variantlar yoyilishi, obrazlar olami masalalarini qiyosiy-struktural hamda tarixiy-tipologik nuqtayi nazardan o'rganish imkoniyati kengayadi. Epik syujetlar genezisi masalasida qahramonlik va romanik dostonlarning alohida o'rni bor. Ularning turkiy xalqlar, jumladan, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatish orqali milliy eposshunosligimiz nazariy poetikasining ochilmagan jabhalariga kirib borish imkoniyati tug'iladi. Ayniqsa, bu turkumlikning ilgari akademik tadqiqot obyektiga aylanmagan namunalarini ilmiy tahlil doirasiga olib kirish folklorshunosligimizni nazariy jihatdan yanada boyitishi shubhasizdir.

Dunyo folklorshunosligida an'anaviy syujet, motiv va obrazlarning genezisi bilan bog'liq tadqiqotlarning salmog'i ortib bormoqda. Bu esa epik syujetlar badiiy evolyutsiyasi masalalarining xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyoti bosqichida tutgan o'rni masalalarini oydinlashtirishga imkon beradi. Ularning ramziy-timsoliy ahamiyatini ko'rsatish orqali epik syujetlar genezisining tarixiy asoslarida mavjud tafakkuriy qarashlar, jumladan, epik qahramon obrazi masalasi, genezisi va badiiy evolyutsiyasi hamda dinamikasini belgilashga xizmat qilishi bilan bog'liq jarayonlarni keng qamrab olishi jihatidan folklorshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda epos va uning ijro etuvchilariga bo'lgan e'tibor har doim ham mavjud bo'lsa-da, ammo mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasida ko'tarildi. Binobarin, "Alpomish" dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda nishonlanishi, baxshichilik festivalining jahon xalqlari ko'lamida an'anaviy tus olganligi, "O'zbekiston Xalq baxshisi" unvonining joriy etilganligi, 2021-yilning 16-dekabr kuni "Baxshichilik san'ati" UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilishi xalqimiz yaratgan nomoddiy madaniy meros namunalari negizida juda katta insoniylik xislatlarining mujassam topganidan dalolat bermoqda. Chunki "har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'alarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi"¹. Bugungi elektron axborot tizimining, jumladan, mass-media tarmoqlarining globallashuvi etnomadaniy meros namunalariga qaytadan yangicha ilmiy-tanqidiy nazar bilan ijodiy yondashuv tamoyillarini boyitib borayotganligi

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 24 апрелдаги 304-сон “Бахшичилик ва дostonчилик санъатини янада ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи, 2018 йил 24 апрель.

bejiz emas, albatta. Ayniqsa, xalqimiz badiiy tafakkurining nodir epik ko‘rsatkichi hisoblangan dostonlarimiz qatida saqlanib kelayotgan o‘lmas g‘oyalar va umuminsoniy xislatlar badiiy tajassumining millatimiz madaniy va ma’naviy tafakkuri taraqqiyotida nechog‘li ahamiyatli ekanligi bugungi avlod tarbiyasiga aqliy-ruhiy ta’siri nisbatida o‘zini yaqqol namoyish etmoqda. Shunday ekan, xalq dostonlari matnidagi purma’no didaktika va semiotik ramzlar tizimi, romantik diskurs, syujet va kompozitsiya poetikasi hamda motivlar tipologiyasi muammolarini nazariy jihatdan ochiqlash zamonaviy o‘zbek folklorshunosligining dolzarb masalalaridan biri sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2010-yil 7-oktabrdagi VMQ-222-son “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Eposshunoslikning muhim nazariy masalalaridan sanaluvchi doston genezisida narrativ-memorat-fabulat-syujet ko‘rinishidagi arxitektonik bosqichlar, janr shakllanishi hamda uning taraqqiyotida obraz va motivlar tizimining o‘rni, matn variatsiyalari, ularning tipologiyasi va poetikasi, umuman olganda, epik ijodiyotning yana boshqa bir qator muammolari jahon va rus folklorshunoslaridan A.B. Lord, K. Rayxl, A.N. Veselovskiy, V.M. Jirmunskiy, V.Y. Propp, Y.M. Meletinskiy, B.N. Putilov, X.G. Korogli, V.V. Illarionov kabi

olimlar tadqiqotlarida ko'zga tashlansa², o'zbek va turkiy folklorshunoslikda H. Zarifov, M. Murodov, T. Mirzayev, M. Saidov, S. Ro'zimboyev, B. Sarimsoqov, M. Jo'rayev, Sh. Turdimov, S. Mirzayeva, M. Qo'shmoqov, J. Eshonqulov, I. Yormatov, K. Allambergenov, S. Sariyev, M. Avezov, B.A. Karriyev, R.Z. Qidirboyeva, B. Mamedyazov, M. Ekijilar bir qator tadqiqot ishlarini olib bordilar³. Chunonchi, "Go'ro'g'li" turkumining o'zbek versiyasi tarkibiga kiruvchi "Tarkibadaxshon" dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi masalasi folklorshunosligimizda maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, bir qator tadqiqotlarda bu borada fikr-mulohazalar qayd etilgan. Jumladan, A.Ergashev o'zining "Oilaviy baxshilar shajarasi"⁴ monografiyasida mazkur dostonning Chori baxshi Umirov kuylagan varianti haqida fan uchun qiziqarli mulohazalarni bildirgan. Monografiyada dostonning janr tabiati, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari borasida bildirilgan fikrlar keng mushohadakorligi bilan diqqatni o'ziga jalb qiladi. N. Ochilov⁵ning ilmiy izlanishlarida ham bu dostonning Janubiy O'zbekiston dostonchiligida tutgan o'rni masalalari borasida nazariy qarashlar mavjud. Folklorshunos olimi Sh. Qahhorova esa "Tarkibadaxshon" dostonining Qahhor baxshi Rahimov varianti haqida ba'zi bir qaydlarni bildirib o'tadi⁶.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan "Adabiyotshunoslikning

²Лорд Альберт. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947; Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., Наука, 1974; Илларионов В.В. Искусство якутских олонхоустов. – Якутск: Университет, 1982; Короглы Х.Г. Огузский эпос // Типология народного эпоса. – М.: Наука, 1975; ўша муаллиф: Трансформация заимствованного сюжета // Фольклор: поэтическая система. – М.: Наука, 1977; Мелетенский Е.М. «Эдда» и ранние формы эпоса. М.: Наука, 1968; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – М.Наука, 1976; Пропп В.Я. Русский героический эпос. – М., 1958; Путилов Б.Н. Героический эпос и действительность. – Л.,1988; Шу муаллиф. Эпическое сказительство. – М.: Восточная литература, 1997; Новиков Ю.А. Сказитель и былинная традиция. – СПб., 2000. Райхл К. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура (перевод с немецкого В. Грейтер). – М.: Восточная литература, 2008.

³Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Дoston, унинг турлари ва тарихий тараққиети // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 9-61; Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008; Ўша муаллиф: Алпомиш дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968; Ўша муаллиф: Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979; Рўзимбоев С. Хоразм дostonчилиги эпик анъаналари. – Урганч: Университет, 2008; Ёрматов И. "Алпомиш" дostonи поэтикasi. – Тошкент: Фан, 1994; Жўраев М. Фольклоршunoslik асослари. – Тошкент: Фан, 2009; Турдимов Ш. "Гўрўгли" дostonларининг genezisi ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011; Шу муаллиф. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999; Шу муаллиф. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006; Мирзаева С. Ўзбек халқ романик дostonлари поэтикasi. – Тошкент: Фан, 2004. Карриев Б.А. Эпос и дестаны (к вопросу об их взаимосвязи) // Известия А.Н. Түркменстана. Серия общественных наук, 1973. – № 6; Кыдирбаева Р.З. Генезис эпоса «Манас». – Фрунзе: Илим, 1980; Гарриев С. Туркмен эпосы, дессанлары ве гундогар халкларынын эпик доредижилиги. – Ашкбат, 1982; Қоңыратбаев Э. Қазақ эпосы және түркология. – Алматы: Ғылым, 1987; Алламбергенов К. Қарақалпақ халық дестаны «Едиге». – Нөкис: Билим, 1995; Metin Ekici. Destan Arastirma ve Inselemelerinde Kullanilar Vazi Terimler Hakkinda // Milliy folklore. – Ankara, 2002

⁴Эргашев А. Оилавий бахшилар шажарasi. Монография. – Термиз: Сурхон, 2018. – Б. 147-156.

⁵Очилов Н. Бахшичилик санъати ва эпик репертуар. – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 57-65.

⁶Қаҳҳорова Ш. "Таркибадахшон" дostonининг Қаҳҳор бахши варианты ҳақида // "Жанубий Ўзбекистон фольклори ва шевашunosлиги муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материали. –Тошкент: Lesson press, 2022. – Б. 52-55.

nazariy masalalari va folklorshunoslik muammolarini tadqiq etish” (2020–2022) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genetik ildizlari, “Go‘ro‘g‘li” eposi o‘zbek versiyasida tutgan o‘rni, doston matnida saqlangan mifologik inonchlar va islomiy e‘tiqodga xos xususiyatlarning badiiy talqini hamda matn strukturasi xos lingvopoetik masalalarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Tarkibadaxshon” dostoni va uning o‘zbek milliy eposi versiyasida tutgan o‘rni masalalarini aniqlash;

doston syujetining genezisi, uning shakllanish bosqichlarida mifologik rudimentlar va diniy tasavvurlarning g‘oyaviy-badiiy xizmatini belgilash;

dostonning “Go‘ro‘g‘li” turkumligiga oid bo‘lgan an’anaviy va o‘ziga xos jihatlarini yoritish;

dostonning motiv va obrazlari negizida shomonlik bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlarning o‘rni hamda badiiy-estetik vazifalarini yoritish;

dostonning obraz, xarakter, portret, peyzaj tasviri bilan bog‘liq badiiy-psixologik asoslarini dalillash;

badiiy-tasviriy vositalarining doston poetikasida tutgan o‘rni masalalarini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Tarkibadaxshon” dostonining Chori baxshi Umirov hamda Qahhor baxshi Rahimovlar tomonidan kuylangan variantlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini mazkur doston matnining variantlashuvi hamda baxshilar ijrosidagi vorisilik an‘analari, epik nasliy turkumlikni yuzaga chiqargan omillar, shuningdek, doston syujetiga xos romanik voqeabandlik va o‘ziga xos badiiylik xususiyatlarining tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning tadqiq usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, struktural va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari tarkibida “Tarkibadaxshon” alohida doston namunasi bo‘lib, uning syujetiga xos xususiyatlari “Malika ayyor” dostoni voqealariga o‘xshashligi aniqlangan;

doston syujetining genezisi, motiv va obrazlari, ularning manbasi mifologik tasavvurlar, keyinroq esa islomiy e‘tiqodning ta’siri natijasida yuzaga kelganligi isbotlangan;

doston syujetining mifologik fabulat – mifologik rivoyat – badiiy kontekst bosqichida davom etishida epik kuychi tipining ustoz-shogird, dostonchilik an‘analaridagi ijodiy jarayonlar sabab bo‘lganligi ochib berilgan;

doston kompozitsiyasiga xos an’anaviy o‘rinlar, motiv va obrazlar tizimining evolyutsion rivojlanishi hamda variantlarining paydo bo‘lishiga baxshi-shoirning badihago‘yligi va individual ijrochilik mahorati asosiy o‘rin tutganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: jahon folklorshunosligidagi mif-marosim-epos munosabatlariga xos ilmiy nazariy konsepsiyalar umumlashtirilib, ularning o‘zbek milliy eposshunosligida tutgan o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan;

“Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi, paydo bo‘lishi va shakllanishi hamda badiiy evolyutsiyasiga asos bo‘lgan manbalar “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari syujetlarining genezisi bilan aloqadorligi isbotlangan;

doston syujeti tarkibida mavjud motiv va obrazlarning xalqimiz qadimiy dunyoqarashi, tasavvurlari negizida shakllanganligi, ularga xos xususiyatlar ko‘rsatilgan;

dostonning jonli og‘zaki an‘analarda ijro etilishida baxshilar mahorati, o‘ziga xos uslubi, tildan foydalanishi, obrazlar olami va badiiy-tasvir vositalari qiyoslanib, uning o‘zbek dostonchiligida tutgan o‘rni tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi “Tarkibadaxshon” dostoni syujet tizimi, motivi, obrazlarining genezisi, evolyutsiyasi, an‘anaviyligi hamda o‘ziga xosligi, badiiy kompozitsiyasiga doir ilmiy yondashuvlar, unda foydalanilgan nazariy ma‘lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalar asosida aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalarning xalq dostonlari syujeti, motiv va obrazlari, evolyutsiyasi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bo‘yicha ilmiy qarashlarni mukammallashtirishda, shuningdek, “Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi, janriy xususiyatlari, obrazlar olamini o‘rganishda, badiiy kompozitsion xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishda hamda epik tafakkur tadriji masalalarini aniqlashga doir fundamental tadqiqotlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi, an‘anaviyligi va o‘ziga xosligi, milliy o‘zbek eposi versiyasida tutgan o‘rni, variantlari, obrazlar olami va poetik xususiyatlariga doir aniqlangan nazariy xulosalardan o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida “O‘zbek folklori”, “Folklorshunoslik asoslari”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlari bo‘yicha ma‘ruza va seminarlarni tashkil etishda, umumta‘lim maktablarida dars mashg‘ulotlarida, o‘quv dasturi va lug‘atlar tuzishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi, janriy xususiyatlari, motiv va obrazlari, evolyutsiyasi, g‘oyaviy asosi, manbalari hamda poetik xususiyatlarini o‘rganish orqali olingan natijalar asosida:

“Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi, motiv va obraz olami, an‘anaviyligi, g‘oyaviy asosi, kompozitsiyasiga doir poetik jihatlar, o‘ziga xosligiga aloqador lisoniy omillarning lingvodidaktik platformasini yaratishga doir nazariy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ–2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi”ni yaratish amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-iyundagi №01/10-1086 ma‘lumotnomasi). Natijada turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratishda epik syujet, motiv va obrazlarning badiiy olami, evolyutsiyasi, janriga xos belgilari, g‘oyaviy asoslari, tarixiy-tipologik xususiyatlariga doir lisoniy omillarini asoslash imkonini bergan.

Tadqiqotning xalq dostonlari, jumladan, “Tarkibadaxshon” dostonining ijro xususiyati, an’anaviyligi, kompozitsiyasi, syujet qatlami va obrazlar olami, g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy asoslari bilan bog‘liq nazariy xulosalaridan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining “Xalq dostonlari – tarbiya qomusi”, “Elda ardoqlangan baxshilar” nomli ko‘rsatuv va radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 30 iyundagi 2-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuv va eshittirishlarning ilmiy ommabopligi, mazmunining mukammallashuvi ta’minlangan hamda milliy eposimiz va uning ijrochilarining badiiy mahorati yosh avlod ma’naviy tafakkurini o‘stirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika, 3 ta xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, asosiy uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibadaxshon” dostoni va uning “Go‘ro‘g‘li” eposi o‘zbek milliy versiyasida tutgan o‘rni** deb nomlangan birinchi bobining **“Tarkibadaxshon“ dostonida “Go‘ro‘g‘li” turkumiga xos an’anaviylik va o‘ziga xoslik**” mavzusidagi faslida dostonning turkumlik dostonlari tarkibidagi o‘rni, an’anaviylik va o‘ziga xoslik borasida fikr yuritiladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari syujet qamrovi, obrazlar tarkibi, g’oyaviy-badiiy o‘ziga xosligi bilan alohidalikka ega bo‘lib, “Tarkibadaxshon” turkumlikning ishqiy-romanik turiga mansubdir. Dostonda Avazxonning Tarkibadaxshondan Gulruxsorni izlab, Go‘ro‘g‘liga keltirib berishi va bu yo‘lda turli-tuman sarguzasht hamda ziddiyatlarga duch kelish voqealari tasvirlanadi.

“Tarkibadaxshon” dostoni syujetini o‘rganish bir tomondan, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlariga xos an’anaviylik, ikkinchi tomondan, doston syujetiga xos arxaik, klassik va postklassik munosabatlardagi umumiy jihatlarni, uchinchi tomondan, syujetning shakllanishi va rivojlanishidagi tipologik hamda evolyutsion jarayonlarni, to‘rtinchi tomondan, an’ana va badiiy mahorat, qolaversa, dostonchilik maktablari ijro uslubi va baxshining individual ijodiy yondashuv masalalarini tahlil qilishda

muhim manba vazifasini o'taydi. Syujet va kompozitsion yaxlitligi, motiv va obrazlar tarkibi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan mustaqil doston sifatida alohida ajralib tursa-da, uning "Go'ro'g'li" eposi o'zbek milliy versiyasida tutgan o'rni masalasini nazariy jihatdan asoslash lozimdek hisoblanadi. Syujetga xos umumo'xshashlik Bulung'ur dostonchilik maktabi baxshilari repertuaridan yozib olingan "Malika ayyor" dostoni varianti voqealari bilan umumiylikka ega. Shuning uchun ham akademik T. Mirzayev ushbu holatga munosabat bildirib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tarkibadaxshon" dostoni "Malika ayyor"ning bir variantimi yoki mustaqil doston? Buni endi yangi tadqiqotlar hal etadi"⁷. Ushbu fikr har ikki doston syujetiga xos voqealar bir variantning yangicha talqinda ijro etilganimi yoxud alohida-alohida namunalarimi degan xulosaga olib keladi. Variant dostonning epik an'ana doirasida yuzaga kelgan, bir-birini inkor etmasdan jonli og'zaki ijroda yashaydigan, o'zaro farqlanuvchi nusxalaridir. Versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo'lib, biror bir asarning turli talqinlarda, kompozitsion qurilishda, ba'zan qahramonlarning o'zgacha nomlanishida keluvchi yagona syujet va janr doirasidagi namunalarini o'z ichiga oladi⁸.

"Malika ayyor"⁹ va "Tarkibadaxshon" dostonlarining yaratilishi, genezisi bir xil syujetga bog'lansa-da, ularning dostonchilik va baxshi-shoirilar mansub makon va zamon bilan bog'liq ijodiy jarayondagi an'analar doirasida ijro etilishi katta farqli tomonlarga olib keladi. Natijada syujetlar orasida farqlar yuzaga kelib, dostonchilik maktablari ijro usuliga moslashadi va variantlashadi hamda yangi bir versiyaning vujudga kelishini ta'minlaydi. Bunday holat har ikkala syujet mustaqil paydo bo'lganmi yoxud bir syujet asosida yuzaga kelib, keyinroq dostonchilik maktablari ijrosida ommalashib, mustaqil shakllanishda davom etganmi, degan masalani o'rta qo'yadi.

Syujetga xos o'xshashlik, bizningcha, dostonchilik maktablari doirasidagi o'zaro yaqinlik va aloqalarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lishi ham mumkin. Mana shunday holat syujetlarning mustaqil harakati va dinamik o'sish holatini bildiradi. Demak, har ikkala syujet mustaqil dostonchilik maktablari doirasida ijro etilgan ekan, bu dostonning bir varianti emas, balki alohida versiyasi ekanligini belgilaydi. Mana shu asosda "Tarkibadaxshon" dostoni Sherobod dostonchilik maktabida mustaqil syujetga ega bo'lgan milliy versiya sifatida ijroda an'anaviylashgan. Shuningdek, "Tarkibadaxshon" dostoni bir qator xususiyatlari bilan "Go'ro'g'li" turkumiga xos an'anaviylik va o'ziga xosliklarga ham ega. Birinchidan, har qanday epik syujetning yuzaga kelishi va ijro jarayonida variantlashish holatlari dostonchilik maktablari doirasida ommalashadi. Dostonga xos an'anaviylik dastlab syujet voqealarida ko'zga tashlanadi. Turkumlik dostonlari syujetida mavjud g'oyaviy-badiiy xususiyatlarning tizimli davom etishi, epik qahramonlar harakatining bir g'oyaviy maqsad sari intilishi, ijroning ustozdan-

⁷Мирзаев Т. "Тўрўғли" туркуми дostonларининг ўрганилиши, яратилиш даври ва дастлабки нашри ҳақида // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. VII китоб. – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 94.

⁸Мирзаев Т. ва бошқ. Ўзбек фольклори. Дарслик. – Тошкент, 2018. – Б. 19.

⁹Малика айёр. Дoston. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳоди Зариф ва Зубайда Ҳусайнова. – Тошкент: Фафур Фулом, 1988. Мисолларни ушбу вариантдан оламитиз ва саҳифасини қавс ичида кўрсатамитиз.

shogirdga, otadan-o'g'ilga og'zaki o'zlashib, dastlabki kuyi, ijro shakli, syujeti va obrazlariga xos badiiy elementlar ommaviylik va xalqchil ifodalarda takomillashib boradi. "An'ananing bosh belgisi qandaydir noma'lum turg'unlik emas, balki ma'lum darajadagi barqarorlik, taraqqiyotning doimiy rivojlanish halqalaridagi zaruriy izchillikdir"¹⁰.

Ikkinchidan, doston "Go'ro'g'li" eposi turkumligi uchun xoslashgan. Turkiy xalqlar eposini maxsus tadqiq etgan olim V.Jirmunskiyning doston matnlarida takrorlanuvchi an'anaviy klishelar haqidagi nazariy qarashi "Tarkibadaxshon"ning turkumlik dostonlariga xosligini ifodalaydi. "Epik kuychi yodlanmagan matnni kuylaydi, u hech bo'lmaganda, qisman muayyan ssenariy bo'yicha improvizatsiya qiladi. Bunda ketma-ket epizod va vaziyatlarga qo'shimcha ravishda an'anaviy odatiy joylar (otni egarlash, qahramonga nasihat, janglarni tasvirlash va h.k) doimiy bo'ladi. Albatta, bunday improvizatsiya faqat ma'lum puxta tashkil etilgan an'ana doirasida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat syujetlar, motiv va tasvirlar, balki doimiy stilistik formulalar, epitelar, taqqoslash, frazeologik birliklar va boshqalar doimiy ravishda ishtirok etadi. Bu esa faqat an'ana va improvizatsiyaning kombinatsiyasidir"¹¹. Shunday ekan, baxshichilik san'atida an'ana va badiha mutanosibliigi ijro va ijod qilish jarayonining muhim belgilaridandir. Turkumlikning barcha dostonlari kabi "Tarkibadaxshon" ham "Go'ro'g'li" turkumiga xos an'anaviylik va o'ziga xoslikka ega. Uchinchidan, turkumlik uchun an'anaviylik dostonchilik maktablari ijro usuli va baxshilar repertuari hamda ustoz-shogird munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Makon va zamon, epik boshlama va xotima, obraz va motiv, sinov va kurash jarayonida umumlashuvchi voqea an'anaviylik asosida takrorlanadi va turkumlikni bog'lab turadi. Doston qonuniyatidagi an'anaviylik ushbu ko'rinishda qoliplashib, ma'lum harakat va badiiy shakllar vositasida ijroga moslashgan. Shuningdek, "Tarkibadaxshon" dostoni nafaqat an'anaviy ijrosi, balki syujet va kompozitsiyasi, obrazlar olami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, tilining jozibadorligi bilan ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, dissertatsiyada bu borada alohida to'xtalib o'tilgan.

"Tarkibadaxshon" dostonining g'oyaviy asoslari va variantlari deb nomlangan faslida biz dostonning g'oyaviy asoslari, Chori baxshi Umirov va Qahhor Rahimovlardan yozib olingan variantlariga xos jihatlar, ularning farqli va o'xshashliklari, badiiy mahorat masalalari borasida fikr yuritdik.

Dostonning ikki varianti – Chori baxshi Umirov va Qahhor baxshi variantlari qo'lyozma va audio shaklda mavjud bo'lib¹², ularning badiiy mahorat qirralarini qiyoslash uchun syujet voqealari, kompozitsion detallar, obraz va badiiy-tasvir vositalari, qolaversa, ikki baxshi ijrosidagi umumiy jihatlar bilan bir qatorda individual ijro mahoratlari ko'rsatildi. Chunki har bir ijro etilayotgan matn ijro jarayonida qaytadan yaralib, baxshi improvizatsiyasini, uning ijodiy manerasini ko'rsatadi. "Tarkibadaxshon" dostonining Chori baxshi varianti Sherobod

¹⁰ Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008. – С. 65.

¹¹ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., 1974. – С. 105.

¹² Таркибадахшон. Достон. Айтувчи Чори бахши Умиров. Ёзиб олувчилар А.Қахҳоров, А.Эргашев. Қўлёзма; Таркибадахшон. Достон. Айтувчи Қаххор бахши Раҳимов. Ёзиб олувчи Н.Очилов, Д.Ҳамроев. Аудио ва қўлёзма.

dostonchiligiga xos barcha xususiyatlarni yaxshi saqlagan. Dostonda an'anaviy Avazxonning Tarkibadaxshondan Gulruxsorni Oqdevshoh qo'lidan qutqarib, Chambil yurtiga – Go'ro'g'liga keltirib berish voqeasi tasvirlangan. Doston syujeti uchun tugun vazifasini Go'ro'g'li tushi va uning izohlanishi tashkil etadi. Konflikt, albatta, syujetda qo'yilgan muammoni yechish, epik qahramonning safarga o'tlanishini shartli qilib qo'yadi. Bu holat romanik dostonlar uchun xoslangan bo'lib, syujet liniyasidagi turli-tuman xarakter va xatti-harakatlarning sodir bo'lishi hamda voqealarning qahramon ruhiyati misolida shakllanish jarayonini badiiy ifodalaydi. Chori baxshi "Tarkibadaxshon" dostonini Umir shoir Safarovdan qanday eshitgan bo'lsa, shu asosda ijro etishga harakat qilgan. Demak, epik qahramon safarga chiqishi uchun unga sabab bo'luvchi voqea Gulruxsor pari va uning olib ketilish epizodi ramziy ma'noda tasvirga olinadi. Variantning o'ziga xos jihati epik to'siq bo'luvchi voqealarning qadimiy asosda saqlanganligi va u bilan bog'liq epik detallarning doston syujeti va qahramon ruhiy vaziyatiga uyg'unlashtirilishidir. Doston hajman katta bo'lib, kompozitsion jihatdan ikki qismni tashkil etadi.

Doston variantida epik voqelikning romanik dostonlarga xos chiroyli tasvirlana borishi, an'anaviy obraz va ularning xarakter darajasida tasvirlanishi, epik klishe va formulalar baxshining badiiy mahorati bois dostonchilik an'analari doirasida ijro etiladi. Dissertatsiyada biz misollarni mana shu variant asosida tahlilga tortdik.

Qahhor baxshi Rahimov varianti. Dostonning Qahhor baxshi varianti dostonchilik an'analari ijro shaklini o'zida saqlaganligi, har bir epizodga xos jihatlarni mahoratli kuylaganligi bilan ajralib turadi. Qahhor Rahimov dostonni ustoz Chori baxshidan o'rgangan bo'lsa-da, syujetning ayrim ko'rinishlari, kompozitsiyasi, epik voqelik bayonida ba'zi farqlar ko'zga tashlanadi. Doston Chori baxshi ijrosiga xos dastlab epik qahramon Go'ro'g'li, uning Chambil yurtida hukmronligi, o'ttiz yoshni qarshi olganligi va farzandsizlik motivi asosidagi tushkun holati bilan boshlanadi. Har ikkala variantda ham syujetni harakatga keltiruvchi asosiy voqea tush motividir. Chunki epik qahramon tushida namoyon bo'lgan tasvir – oy badiiy detali tugun vazifasini o'tab, u konflikt uchun zamin yaratadi.

Qahhor baxshi variantida Avazxon Tarkibadaxshonga borishni Go'ro'g'li sultonga bildirsa-da, an'anaviy may tutish epizodi mavjud emas. Shu bilan bir qatorda, Ahmad sardorning Avazxonga suiqaqd qilish tasviri Asqartog'da emas, balki Ko'ktog'dagi g'orda sodir bo'ladi. Variantning farqli xususiyati epik to'siq bo'luvchi Mashar jodugar Oqdevshohga Avazxonning yo'liga bandarga tashlash kerakligini ta'kidlashi, Mashar jodugar esa singli Bashar maston bilan kelishgan holda qiz qiyofasiga kirib, Avazxon va G'irotni duo qilingan tuproq orqali bandi qilib halok qilmoqchi bo'ladi. Ammo tutqunlikdagi Guljahonning ogohlantirishi va chiltonlarning yordami bilan Avazxon qutulib, Mashar mastonni halok etadi.

Garchi Mashar va Bashar jodugar obrazlari Chori baxshi repertuarida ham epik to'siq sifatida uchrasa-da, Qahhor baxshi variantida ular modernizatsiyalashtirilgan holda ijro etiladi. Shuningdek, Qahhor baxshi ba'zi epik makon va obrazlarni individuallashtirib, ijro etishga harakat qiladiki, bu jarayon dostonidagi voqealarni

bir oz farqlashga olib kelgan. Baxshi tasviriga ko‘ra Qorabog‘ podshohining Nabot jodugari bo‘lib, u ham sezgir, yomonlikni ravo ko‘ruvchi va voqelikni oldindan his qiluvchi timsol sifatida tasvirlanadi. Qorabog‘ podshohning “Nabot degan bir jodugari bor edi, mastonligi qat-qat edi, qilgani suhbat edi, yomonligi qavat-qavat edi. Bir kuni quloq solib, angladiki, Qorabog‘dan naryoqda bir tulporning dupuri kelmoqda. G‘irot kelayotibdi, podshohga borib, xabarini berayin, podshohdan ko‘p in‘omni olib qolayin” (50-bet), deb G‘irot xabarini yetkazib, o‘zi Avazxonni Cho‘h tog‘ bilan Yonar tog‘ning oralig‘ida to‘rga tushiradi. Avazxonning:

... *Yigit odam ena so‘zdan qaytmaydi,
Armon tushsa yuraklardan ketmaydi.*

Otajonim qarab yotar yo‘limga,

Tarkibadaxshonga yetmasam bo‘lmaydi...(52-bet), –

deb yolvorishi jodugarga ta‘sir qilib, uni ozod etadi. Ushbu variantning o‘ziga xosligi Tarkibadaxshonga kirish joyi – saroyning ustini qazib, yo‘l ochishda davom etadi. Doston voqealarida epik qahramon devlarga javob berib, qaytish jarayonida Toychoq tog‘dan Guljahonni, Shaman mamlakatidan Saidxon podshohning qizi Zulfizarni nikohlab olib, Ko‘ktog‘ga yetadi. Ahmad sardor esa yigitlari bilan Avazxonning kelishini poylab turib, uni kutib oladi. Chinor tagida Avazxon uyquga ketgan bir vaqtda Ahmad qari Avazxonning bo‘yniga qilich soladi, pari va lashkarlar bilan Chambil yurtiga qaytib, Go‘ro‘g‘liga Avazxonni yo‘lbars bo‘g‘izlab ketdi deb, ishontirishga harakat qiladi. Go‘ro‘g‘li esa Soqi va Shodmon merganga topshiriq berib, Avazxonni topib kelish maqsadida Ko‘ktog‘ga yuboradi. Voqealar yakunida Avazxonning savdogarlarga qo‘shilishi va Chambil yurtiga qaytishi, Gulruksorning kapitlar qiyofasidan go‘zal pariga aylanishi hamda qahramonlarning murod-maqsadlariga yetishuvi tasviri bilan yakun topadi.

Variantlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, ular bir umumiy syujet chizig‘ida davom etsa-da, kompozitsion vositalar va ba‘zi epizodlarda farqlarni yuzaga keltiradi. Qolaversa, ikki baxshi ijrosidagi badiiy mahorat qirralarini kuzatish asosida bir baxshi variantida an‘anaviy uslub elementlari, ularning dostonchilik maktabi ijro shakliga mosligi, baxshi mahorati masalalari yorqin namoyon bo‘ladi. Dissertatsiyada variantlardagi farqli xususiyatlarni o‘tini egarlash, epik to‘siq, safar motivi bilan bog‘liq jihatlar, devlar obrazi, epik makon tasviri kabi epizodlarni qiyoslash asosida ko‘rsatib o‘tdik. Ikki variantning qiyosiy tahlili Chori baxshining mahorat bilan ijro etganligi, doston syujetiga xos qadimiy asoslarini saqlaganligini ko‘rsatdi.

Eposga xos xususiyatlardan biri – unda ijtimoiy g‘oyalarni ifodalovchi qahramonlarda mehnatkash xalqqa xos donishmandlik va orzu-umidlarning romantik ko‘tarinki ruh bilan tasvirlanishi, o‘z davri hamda kelgusi avlodlar uchun ham muhim va zarur bo‘lgan masalalarni nafis bo‘yoqlarda jonlantirishdir.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida Go‘ro‘g‘li ramziy ma‘noda xalq yo‘lboshchisi, rahnamosi sifatida tasvirlanar ekan, u doimiy ravishda o‘z missiyasini mana shu g‘oyaviy maqsad bilan bog‘laydi. “Tarkibadaxshon” dostonida ham ushbu epik qahramon bilan bog‘liq an‘anaviy jihatlar uning farzandi Avazxon timsolida davom etadi. Shunday ekan, doston g‘oyasida ham o‘zga olam mavjudligiga ishonch va uning vakillariga ixlos aks etgan mifologik qarashlar mavjudligi ramziy

jihatdan asoslanadi. Bu ramziy ifoda o'z navbatida ajdodlar ruhining madadkorligiga sig'inish an'analari bilan uyg'unlashgan hamda Go'ro'g'li, Avazxon va parilar obrazida ramziy jihatdan ifodalanadi. Doston voqealari murakkab syujet chizig'ida davom etsa-da, u bir g'oya atrofida birlashadi. U ham bo'lsa, qahramonlik ko'rsatish orqali yurtni, xalqni himoya qilish, dushmandan ayovsiz o'ch olish. Ushbu xatti-harakat doston voqealarida Tarkibadaxshondan Gulruxsorni olib kelish orqali badiiylashtirilgan. Dostonda qo'yilgan konflikt va uning yuzaga kelish omillari ham Avazxonning Gulruxsorni Oqdevshoh qo'lidan ozod qilib Tarkibadaxshondan olib kelib Go'ro'g'liga berish voqealarida ikki qarama-qarshi kuch o'rtasidagi kurashning ramziy ifodasining ijodiy jarayondagi badiiy shaklidir. Tadqiqotda ushbu masalalar atroflicha tahlilga tortiladi.

“Doston syujetining genezisi va poetik evolyutsiyasi” deb nomlanuvchi ikkinchi bobda “Tarkibadaxshon” dostoni syujetining genezisi va poetik evolyutsiyasi masalasi borasida fikr yuritilib, uning birinchi faslida **“Tarkibadaxshon” dostoni syujetining manbalari va genezisi**” masalasiga e'tibor qaratiladi.

Xalq dostonlari nafaqat ijro etilishi, balki syujetining yaratilishi bilan bog'liq umumiy jihatlar nuqtayi nazaridan ham qadimiy asoslariga ega. Dostonlar syujetiga asos bo'luvchi epik voqelikning kim tomonidan va qanday yaratilishi bizgacha aniq ifodalarda aks etmasa-da, ularning tarixiy asoslari xalq taqdiri va e'tiqodiy qarashlarining badiiy ifodasini tashkil etadi. Ikkinchidan, epos syujeti, obraz va motivlari, ularga xos ijro xususiyatlariga doir manbalarni ko'zdan kechirish orqali birlamchi g'oyaviy maqsadini anglash lozimdir. Epik syujet uchun asos bo'lgan har qanday voqeaning tarixiy ildizi o'sha xalqning yashash sharoiti, e'tiqodi va tasavvurlaridagi mushtarakliklar, adabiy ta'sir va hududiy yaqinliklar natijasidir.

Shu o'rinda “Tarkibadaxshon” dostoni syujeti genezisi borasida ham shunday fikr bildirish mumkin. Chunki doston “Go'ro'g'li” turkumligining “Avazxon” nasliy shoxobchasiga bog'lanib, unda ham syujet uchun asos bo'luvchi omillar mifologik dunyoqarash, islomiy e'tiqod va unga aloqador manbalardan tashkil topsa-da, ko'proq shomoniylilik tasavvur va e'tiqodlar ko'proq syujet genezisining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Shomonlik va shomon obrazi borasidagi tasavvur va e'tiqodiy qarashlar xalqimiz marosimi tarkibida ko'proq o'zining amaliy ifodasini topgan. Ikkinchidan, mifologik tasavvurlarga ko'ra olam uch vertikal tuzilishga egaligi, shomonlar esa uch olam bilan bevosita muloqot qilish va unga safar qila olish ko'nikmasiga egaligi ko'plab arxaik syujetlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Bizningcha, “Tarkibadaxshon” dostoni syujetiga asos bo'luvchi omillar, asosan, xalqimizning olamni uch vertikal tuzilishdan iborat degan qarashlari asosida shakllangan. Arxaik mifologiyada kosmos, dastlab shaklsiz, suv to'fonidan iborat xaos sifatida tasavvur etilgan. Keyinchalik bu to'fondan quruqlik, ularning vertikal harakat yo'nalishiga qarab yerosti (suvosti ham), yer yuzi va osmon, ya'ni kosmosning bir-biriga zid qo'yiluvchi trixotomik tuzilishi vujudga keladi¹³. Chunki ko'pgina dunyo xalqlari mifologik tasavvuriga ko'ra olam uch vertikal tuzilishdan

¹³Мелитинский Е.М. Поэтика мифа. – М., 1976. – С. 206-212.

iborat ekanligi, ayniqsa, bu holat “uch” raqamidagi mifopoetik talqin asosida yanada aniqlashadi. “Folklor hamda marosimlarda uch raqamiga alohida e’tibor berilishiga sabab, uch olamning vertikal tuzilishi, ya’ni kosmosning trixotomik strukturasi haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlardir”¹⁴. Boisi epik qahramon Go‘ro‘g‘li kabi Avazxon ham turli sehrlı vositalar yordamida har xil qiyofaga kira oladi. Xalqimiz e’tiqod va tasavvurlarida moniylik, buddizm, zardushtiylik, islom va boshqa dunyoqarash bilan bog‘liq diniy tasavvurlar mavjud bo‘lsa-da, shomonlik alohida o‘rin tutadi. Shomonlik va uning arxaik epos rivojida tutgan o‘rni, epik asarlar syujet tizimida an’anaviy motivlarning shakllanishi shomon mifologiyasi, marosimlari va obrazining muhim rol o‘ynaganligi bir qator folklorshunos, etnograflarning tadqiqotlarida ham ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, V.Y.Propp epos genezisining “o‘zga olam”ga safari va tabiat stixiyasini o‘zida mujassamlashtirgan “tabiat iloha”siga uylanishi haqidagi miflarga bog‘laydi¹⁵ T.M.Mixaylov esa: “Shomon folklori va shomonlarning xalq bilimi va epik asarlarini ijro etishdagi rolini o‘rganish eposshunoslikning bir qator dolzarb muammolarini hal qilish imkonini beradi. Sibir xalqlari eposi va shomonizmni tadqiq etish tarixan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, dastavval, bir shaxs o‘zida ikki xil ijrochilikni mujassamlashtirganligini qayd etib, epos ijrochisi va shomon obrazining yaqinlik xususiyatlarini qayd etadi¹⁶.

“Tarkibadaxshon” dostoni syujeti genezisining yuzaga kelishi ham mana shunday mifologik dunyoqarash asosida shakllangan. Go‘ro‘g‘li dostonlarda shomon dunyoqarashi asosida tanlangan homiy kuch vazifasini o‘tasa, Avazxon uning vorisi sifatida faoliyatini davom ettiruvchi obrazda gavdalanadi. Ramziy ma’noda shomonlik dunyoqarashiga ko‘ra bo‘lg‘usi shomon ruhlar tomonidan tanlangan bo‘lsa, ushbu holat dostonida Avazxon timsolida badiiylashadi. Chunki epik qahramon Avazxon faoliyati, uning sarguzashtlari tasvirga olingan “Tarkibadaxshon”da ham Go‘ro‘g‘li obraziga xos xususiyatlar mujassamlasha boradi. “Tarkibadaxshon” dostoni syujetida mifologik dunyoqarash bir qator motiv va obrazlarda ramziylashadi. Syujet uchun konfliktning yerosti dunyosi Tarkibadaxshon tanlanishi doston tugunida qo‘yilgan g‘oyaviy maqsad bilan shartlanadi. Dostonida epik qahramon yo‘lida uchraydigan to‘siqlar mifologik asoslar bilan bog‘lansa, tugunning yuzaga kelishida yetakchilik qilgan voqelik ham ramziylashadi. Aniqroq aytganda, epik qahramonni sarguzashtga chorlovchi voqeaning boshlanishi, ya’ni tugunda asos bo‘lgan harakat Gulruksor pari va uni izlab yerosti dunyosi Tarkibadaxshonga safarga otlanish mifologik kodning epik dunyoqarashda estetikleashuv jarayonidir. Chunki dostonida badiiy mazmuni ifodalashga harakat qilgan motiv va obrazlar shomonlik dunyoqarashi g‘oyasini tasvirlaydi. Epik qahramon Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Yunus, Misqol, Gulruksor kabi obrazlarning turli qiyofaga kira olishi, magik qudratli detallar yordamida himoyalaniş yoxud kuch-qudrat ko‘rsata olish imkoniyatiga egadir. “Tarkibadaxshon”da Avazxon, Gulruksorning mana shu kabi tasviri, xatti-harakati dostonida qo‘yilgan badiiy shartlilikning ramziy ifodasi sifatida faollashadi.

¹⁴Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 73.

¹⁵Пропп В.Я. Фольклор и действительности. Избранные статьи. – М.: Наука, 1976. – С. 299-301.

¹⁶Михайлов Т.М. Шаманизм и эпос. Эпическое творчество народов Сибири. Улан-Удэ, 1973. – С. 91.

Ikkinchi bobning **“Doston syujetining evolyutsiyasi”** deb nomlanuvchi ikkinchi faslida biz syujetga asos bo‘luvchi voqealarning evolyutsiyasi, bunda voqealarning badiiy-estetiklashuv jarayonida epik ijrochi dunyoqarashi va ramziy ifodaviy vositalarning epik tafakkur rivojida yuz berishi, syujet qatlamlaridagi diffuzion holatlarning ro‘y berish omillari haqida fikr yuritdik.

“Tarkibadaxshon” dostoni syujetining taraqqiyoti tarixiy bosqichlarda “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari bilan genetik va tipologik nuqtayi nazardan aloqadorlikka ega. Bu esa o‘z navbatida turkumlik dostonlari mavzusining, syujet tarkibining kengayishiga asos bo‘ladi hamda ularni sof an‘analar tizimida shakllanishini ta‘minlaydi. “Xalq dostonlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishida an‘anaviy dostonlarning badiiy evolyutsiyasi muhim rol o‘ynaydi va ularning ommalashishi baxshining yuksak ijro mahorati natijasi bo‘ldi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘zbek xalq dostonlarining badiiy tizimida turli davrlarga oid epik syujet va motivlar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek xalq dostonchiligining taraqqiyot bosqichlari, qadimgi davrlarda yashab o‘tgan ajdodlarimizning mifopoetik obrazlarini tasvirlovchi arxaik syujetga borib taqaladi”¹⁷.

